

83
M 84

MIRZOHID MUZAFFAR

BIRINCHI KITOBIM



FOSH



83

34/1

M 84

M.Muzaffar

Рост

Китоб шу ерда кўрсатилган муддатдан
кечиктирилмаган ҳолда топширилиши шарт

Илгариги берилмалар миқдори _____


83
M 84

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
"IJOD" JAMOAT FONDI

MIRZOHID MUZAFFAR

TOSH

She'rlar



TOSHKENT
"ADABIYOT"
2020

Nashr uchun mas'ul:
G'ayrat MAJID,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi
o'rinnbosari

Mas'ul muharrir:
Aziz Said

Mirzohidning hammamiz ko'rib turgan dunyo ichida o'zigagina tegishli ichkin dunyosi bor. Uning teran nigohidan borliqdag'i hech bir narsa chetda qolmaydi, jonsizlarni jonlantiradi, hatto jilvalantiradi. Kimdir uning dunyosiga bo'y cho'zib qaragudek bo'lsa, ertaklar olamiga yoinki o'zga sayyoraga tushib qolgandek his etadi o'zini va bu olamning sehr-jozibasidan kechib ketolmay qoladi. Shoiring dunyosi shunchalar bepoyonki, ko'rib turgan borlig'imiz uning kiprigidagi tomchiga teng.

*Ushbu kitob 2018-yili O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
o'tkazgan Respublika yosh ijodkorlarining
Zomin seminarida nashrga tavsiya qilinib, "Ijod" jamoat
fondi tomonidan moliyalashtirilgan.*

ISBN 978-9943-6472-5-1

© M. Muzaffar, 2020
© "Adabiyot", 2020

INVENTAR № 3411
Leccevoda SKN

UMIDIMIZ KATTA

Mirzohid bilan ilk bor suhbatlashganimizda o'n besh yoshlarda edi. Uning o'zbek va jahon she'riyatidan xabardorligi, bir nechta tilni o'rganayotganligi, hatto eng sara she'rlarni xorijiy tildan o'zbek tiliga, o'zbekchadan xorijiy tillarga o'girib ko'rayotganligi, o'zining dastlabki she'rlaridagi kutilmagan ifoda yo'sini va nigoh - hozirgi yosh avlod faqat shiornamo she'rlar va almoysi-aljoyi qo'shiqlarni she'riyat deb tasavvur qilyapti deb xulosaga kelib qo'ygan - meni xursand qilgan, fikrlarimni o'zgartirgan edi. Hech qancha o'tmay u nazarga tushdi. Xurshid Davron saytida, gazeta-jurnallarda turkum she'rlari e'lon qilindi, kollejni tugatmasdanoq televideniyening "Madaniyat va ma'rifat" kanaliga ishga chaqirishdi, she'riyat anjumanlari va festivallari kashfiyotiga aylandi va nihoyat ilk to'plami Zomin muhokamasidan o'tib kitobga tavsiya qilindi.

Kichik she'riy to'plamlarning o'z ruhiyati, kayfiyati bo'ladi, fikr-tuyg'ularning hamohangligi, bir-birini to'ldirishi o'quvchini ijodkorning hissiyotlari olamiga olib kirib ketishi lozim. Ushbu to'plam eng avval ana shunday fazilati bilan o'quvchini rom qiladi.

Mirzohid o'z tuyg'ularini, hislarini kuzata ola-di, atrofidagi olamni tuyg'ulari va hislarining bir

qismi deb biladi va tasavvurining kengligi ila su-ratlarini chizadi. Shuning uchun ham to'plamni:

*"Tasavvurga ko'mdim o'zimni
Va o'yladim cheksizliklarni", -*

deb boshlaydi. Barcha she'r ahli, ko'ngil ahli singari o'zining kimligini anglashga intiladi, ammo o'z tashbehlari, o'xshatishlari tilida savol beradi:

*"Gunohlar to'kilar barmoqlarimdan,
qadamlar to'kilar oyoqlarimdan,
javoblar to'kilar so'roqlarimdan,
ayt, o'zim qaylardan to'kildim?
Tomchiman -*

ko'ksimda ming dengiz pinhon.

Shu'laman -

ming quyosh menda saqlar jon.

Lahzaman -

bag'rimda asr sargardon,

ayt, o'zim qaylardan to'kildim?

Haq ruhni Odanga joylaganida

chalingan ohangdan qolgan sasmanmi?.."

U dunyo, hayot, muhabbat, odamlar haqida mushohada qilayotgan, iztirob chekayotgan, o'z-o'zini go'yo chetdan turib kuzatayotgandek bo'ladi:

*"Dunyo, joming ichra men sharobdirman –
Halloyga sanchilgan xanjardan o'tkir".
"Hozir "baxt" so'zini eshitging yo'qdir,
Shunchaki...
bir o'zing yig'lamoqchisan.
Tashqarida Ishqni
shivirlar yomg'ir,
o'z-o'zingni she'rqa chog'lamoqchisan..."*

Har qanday she'rning boshlanishi shoirning she'r yozayotgan lahzadagi ruhiy holatini, yozishga nima sabab bo'lganini, u sukunatda mushohada qilyaptimi, hayajondami, iztirobdami, g'azabdami, bildirib turadi. Kimdir harakat, kimdir manzara, kimdir so'z o'yini, kimdir hikmatnamo fikr, kimdir tashbeh bilan boshlaydi. Aksariyat hollarda ana shu ilk satrlar she'rxonni jalb qiladi va oxirigacha ushlab turadi. Mirzohidning ayrim she'rlari harakat tasviri bilan:

*"Bir so'z izlayapman..."
"To'kilib ketasan eshikni yopib..."
"Odam ketib borar..."
"Novdalar sinadi qaltirab, qaqqash..."
"Bir boshqacha kirib keldi kuz..."*

tarzida boshlansa, ba'zi she'rlari esa holatlar manzaralar tasvirini tasavvuringizga ko'chirish bilan boshlanadi:

*"Yomg'irlar yog'adi...
ochilar yurakning derazalari"
"Jimgina jon berar bog'da daraxtlar..."
"Sarxushlik jomida sarobday tindim..."
"Avtobus bekati...
yolg'iz yo'lovchi..."
"Sen va men,
O'rtada yagona fonus".*

To'plamdagi she'rlardan ko'rinish turibdiki, iste'dodli yosh shoir Mirzohidning tengdoshlariga o'xshatib bo'lmaydigan o'z nigohi bor. She'riyatning yuksak mezonlari bilan o'zini qarichlashga intiladi. Vaqt bilan uning mavzulari kengayishiga, jahon va o'zbek she'riyatining an'analarini o'zida mujassam qilgan zabardast shoir sifatida ko'rishimizga umidimiz katta.

Aziz SAID,
*O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi, shoir.*

* * *

Yomg'ir shevasida she'r o'qir osmon,
har bitta satridan ziyo tomadi.
Ko'nglimdan uzilgan shamollar bilan
ketgan Ishq qaytishdan qattiq tonadi.
Men hali yo'qdirmal,
topilmaganman,
sochilib yotibman yomg'irlar aro.
So'zlar shu'lasidan ko'zim qamashib,
ketarman Yo'qlikning dargohi tomon.
Tonglarni
ichadi chanqagan ruhim,
garchi men qaygadir yo'qoldim, axir.
Izimni izlagan Ochunga aytинг –
meni olib ketdi shoирqalb Yomg'ir...



* * *

Aya,

men negadir ichikolmadim,
xokistar uzandim sendan nariga.

Bugun qo'rquv titroq suvratin chizar
nafasimning shaffof devorlariga.

Bir yo'l ko'rinati -

senga bormas yo'l,
dilimning chilparchin derazasidan.

Uyg'onib ketaman kuzgi bog'larda
Yoding-la to'kilgan barglar sasidan.

Ko'zimda muzladi quyosh siyrati,
oyat daryolari to'ldilar ohga.

Og'riqlar tirildi -

najot bergil deb
faqat senga borgum,
faqat Allohga...

Uloqib yuribman olis kunlarning
ro'moling kabi keng taraflarida.

Aya, ko'r,

umrimning libosi - iymon,
lek tanim osiylik hadaflarida.

Botinimda qo'par zangor vasvasa,
bilmaysan...

bu zulmat - iblis sajdasi.

Va yana bilmaysan,
bu kenglik - zindon,

men hamon qo'msarman mehring qafasin.

Kun kelib uzgayman behol, bemajol
umidning zang bosgan zanjirlarini.
Sindirgum ko'ksimga botmoq istagan
dunyoning nigohiy xanjarlarini.
Ketarman, kelarman...
yo'lim – aylana,
borligim – borliqqa yo'nalgan o'chim.
Bemehr demagin, charchadim, aya –
seni sog'inmoqqa yetmaydi kuchim.

* * *

Birrovga kelgandim seni ko'rmoq-chun,
eshiging berk ekan...
keta olmadim.

9

Tushun,
yo'llarimni chulg'amish huzun,
netay, ibtidodan qahat omadim.
Oyog'im tortmayroq turgandi o'zi,
manziling nomini bilardim – ro'yo.
Birrovga kelgandim...
shart tutib olib
umr qafasiga soldi bu dunyo.

* * *

Turnalar faryodi uyg'otar seni,
o'zingni otasan
bag'rimga –
toshga.

Yo'llaring yo'qolar, ketmoq bo'lasan –
barcha taraf ochiq...
qibladan boshqa.

Tegrangda jununvor raqs aylaydi kuz,
jonim,
kiprizingga iqror ilinar.
Sen bir so'z kutasan,
ket, degan bir so'z –
men sukut saqlarman vido tilida.

Manozil muntazir,
yo'ling oq bo'lg'ay,
labingga lablarim solmagay soya.

Bilaman,
oxirim sendan-da yaqin –
bilaman, yangramas endi ul oyat.
Tushlaring forig'dir endi jismimdan
ketasan, chorlagay bebaxtlik yo'li.
Lahzada qaytasan –
xonamga kirar
sening isming bilan atalgan o'lim...

* * *

Bo'yab o'tsam kunlarimni qor rangiga,
ko'zlarimga chizsam tunning oppoq rasmin
va bobomdek yetim tog'lar poyida men
jon bersam gar,
aytgil, bu jon uvolmasmi?

Shu tog'larning boshida qor bo'lsaydim, deb
kechib ketdim...

Izlarimning rizqi yarim.

Har bir g'orda bir payg'ambar yashar desam,
ishonmagil,
rost bo'ladi aytganlarim.

Ishonmagil,
haqiqatlar – jami jirkanch,

bu yolg'onlar do'zax qadar muqaddasdir.

Iblis jomin lablarimga joylashtirgach,
butun so'zlar ishonchingga arzimasdir.

Tosh qulasa seskanmagan maysalar bor,
nayzalar bor – yuragimga tegmay o'tgan.

Bobom bordir,

ko'zlarida yo'l intizor,

qaroqlari manzillarni tig'dek yutgan.

Bu shu'lalar so'nguvchidir,

kelmas ishga –

har qush bo'g'zi – Isrofilga yetmas naydir.

Ketavergil, farqi yo'qdir qaro qishga,

biz bosmagan izlarni ham qor ko'mgaydir.

* * *

Moviylik qo'ynida qaro nuqta – shab,
tikilgum o'zimga tergovchisimon.

Men,
dedim –

ostimda tufrog' muhtasham,
ustimda ustuvor qalqdi osomon.

Men, dedim –
chaqmoqlar chaqdi charsillab,
garchi ko'ksim ichra jon – so'nggi yaproq.

Ko'zguga qarayman –
kimdir harsillar,
o, ichim – ichimdan oqmakda titroq.
Uchayin, deyman-u, sig'mam o'zimga,
Ochun tomib ketar kipriklarimdan.

Ketib borayapman, qara, O'zingga
Umrning Sirotiy ko'priklaridan.

Anglolmay qolaman,
ne bo'lur sodir,
Aylanib bo'lganman, balki, ro'yoga.

Ehtimol, borligim o'zi xatodir
Yo men tegishlimas ikki dunyoga...
Kengayib boryapman, fofia shudir,
sabrim kosasiga to'lgaydir fursat.
Rabbim, tinch yashayin, hech yo'q bir umr –
zaminsiz,
samosiz olamni ko'rsat.

* * *

Men-ku...

yashamoqlik hali notayin,
yo'limda turibdi ming qora devor.
Baridan o'tmoqlik mumkindir,
ammo
ularning ortida cheksiz O'zim bor...
Sen esa uyquga to'lgansan – afsus,
men menmanmi, deyman...
uxlaysan – jimsan.

Ehtimol, mudroqlar aldar meni ham,
nega uyg'otmaydi bizni hech kimsa?
Uyg'ongin,
dolg'alar so'ramam sendan,
mayli, meni o'ldir sukut tig'ida.
Faqat ko'zlaring och,
uyg'onib ketay –
ochiq ko'zlaringning hayqirig'idan...

* * *

Bir zulmat ato et
qarog'im qadar
va nisor aylagin
jonfizo o'lim.

Yo'l bergin,
men sendan ketayin badar,
sensizlikka to'lsin o'ngim va so'lim.

Yo Haq, nigohimning tomirlarida
oqib borayotir sim-siyoh kunlar.
Dunyoning ismsiz yomg'irlaridan
ivib bitayotir pinhon jununlar.

Sen ko'rib turibsan,
holim parishon –
manfur ravshanlikka to'lar tomonlar.
Ketib bormakdaman beso'z, benishon,
izlarimni o'par roviy shamollar.

Bir to'lib turibman,
so'nib turibman –
hukm qil,
tegrangdan ketayin oqib.

Manim dalli ruhim holatlarining
teran tubi qadar o'zingsan voqif.
Bu la'nat dog'lari o'chmagay hargiz,
bu g'addor sukunat bo'lmagay g'orat.

Sendan istaganim –
yo'qlikni yolg'iz
bir bora ziyyarat aylay,

ziyorat...

Foni vujudimning kavaklarida
isyonlar bolalar,
savollar urchir.

Boqgil, men sengamas, ularga banda,
axir...

viqoringga yetmaydi kuchim.

Meni kechirmagin,
muborak do'zax

Olovlarin bulg'ab qo'ymoqdan qo'rqqum.

Sharhsiz iztiroblar g'ubori ila
siyratimni chulg'ab qo'ymoqdan qo'rqqum.
Kechirma...

sob bo'l mish azaliy aza,
borliqning ko'zida yo'qdir tomchi nam.

Netayin,
bu shaffof qarolig' ila

sening borligingni tan olmay sevsam.

Poyingda sochilib yotibman xasdek,
Boshimda malaklar o'rlaydi – xatar.

Sendan afv istamam,

Faqat so'rayman –
bir zulmat ato et
qarog'im qadar...

* * *

Tunlardan bir tun
fazoning farzona teranliklarin
bosib ketar
qanotlari kuygan
malak faryodi
aks-sado yo'lkalari qolar berkilib
nurning tomirida oqyotgan zulmat
bug'lanib ketar
lahzalarning bedorliklari
mahliyo bo'lar O'limning soyalariga
qiynalib ketaman
lomakon oqimiga tushib qolar nafasim
jimjitligim aro esar shamollar
va chulg'ab oladi yetti tomonni
xayoldek beshakl tanholik
o'zgarar shamollarning shamoyillari
tunga sanchiladi nihol navdasi
Karbalo dashtiga she'r yozar kavshim
bir she'rki
osmoniy oyatlar-la orolanmishdir
havo sovib ketar
titray boshlayman
va kiyib olaman issiq og'riqni
samovotning zarhal darichasidan
boqarkan
kulib qo'yadi Kimdir
ko'zlarimning hajmi qadar kattaradi tun

yangilanar bu dunyoning ichki dunyosi
 qayerdadir ochilmoqqa boshlar dastorgul
 men tinglay boshlayman
 ko'kning derazasidan
 yo'qligimga boqib
 turgan Kimdirning nigohlarini
 va tong aytib berar bor tafsilotni
 ayni shu payt
 mening ro'yoligim bo'lib qolar fosh.

* * *

Isyon isi kelar sukulatimdan,
 ruhimga singiblar ketmishdir bo'shliq.
 Uchqun sochiladi bu siyratimdan,
 olovda yangragan qo'shiqman, qo'shiq...
 Qaqnusning qonidan to'ralgan qayg'u
 mening loyim erur.

Nafratim – rafiq.

Olti tomonimni chulg'amish bugun
 haqdan kelgan nomsiz, muqaddas og'riq.
 Ibtidosiz, intihosiz iztirobdirman,
 yo'l sizlik yo'liman –
 oxirim yo'qdir.

Dunyo,

joming ichra men sharobdirman –

Halloyga sanchingan xanjardan o'tkin.

Isyon isi kelar sukulatimdan...

INVENTAR №

3411

Zaynida S.K.M

* * *

(“Onegin” turkumidan)

Ishqning nozik barmoqlari-la
nigohingiz tikdingiz – zarif
va jonimning so‘qmoqlarida
paydo bo‘ldi qayg‘u izlari.
Xona titrar qo‘rquv ichinda,
havoning xumori tutadi.
Bir titroq tirildi ichimda,
yonmadim...
yonmadim...
tutadim...
O‘rtamizda o‘rtandi fursat,
o‘rtamizda yitdi bardoshlar
va istadim:
o‘zimni ursam –
men, deb tursa tumonat toshlar...
bir yog‘ishlar yog‘ib bersaydi,
ketsam... esdan chiqsa soyabon.
Ketmoq-ku... nomushkul ishga o‘xshaydi,
Lek Siz borsiz...
Siz bor – beimkon...
va o‘ylayman o‘lim haqida,
portlayman
(pand berar mastligim) –
Xudoning borligi kabi haqiqat
mening sizni sevolmasligim.

* * *

To'kilib
ketasan
eshikni yopib,
tashqarida izg'ir mezon nafasi.
Qaydandir...
bir suvrat olasan topib –
g'alayon ko'tarar ko'ksing qafasi.
Hozir "baxt" so'zini eshitging yo'qdir,
Shunchaki...
bir o'zing yig'lamoqchisan.
Tashqarida Ishqni
shivirlar yomg'ir,
o'z-o'zingni she'rga chog'lamoqchisan...
Qo'lga qalam olding,
to'lding g'ussaga,
xonangga iymanib kiradi Afsus.
Kamiga
dardlarin
ortib jussangga
yuragingga kirib kelayotir Kuz.

* * *

Gunohlar to'kilar barmoqlarimdan,
qadamlar to'kilar oyoqlarimdan,
javoblar to'kilar so'roqlarimdan,
ayt, o'zim qaylardan to'kildim?

Tomchiman –

ko'ksimda ming dengiz pinhon.

Shu'laman –

ming quyosh menda saqlar jon.

Lahzaman –

bag'rimda asr sargardon,

ayt, o'zim qaylardan to'kildim?

Haq ruhni Odamga joylaganida
chalingan ohangdan qolgan sasmanmi?

Do'zaxdan sachragan cho'g'manmi?

Bilmam.

Yoki bu dayr ichra dayr emasmanmi?

Javob bersang-chi,

ey tushuntirguvchi,

qaysi sukunatdan kelgansan – jimsan?

Faqat ketib qolma Yo'qlikka uchib,

Balki, bari bekor...

Balki, sen – mensan...

* * *

Sarxushlik
jomida
sharobday tindim,
izladim
o'zimdan tiriklik – dalil.
Ismingga o'ralgan qaynoq qayg'udan
chayqalib-chayqalib sadr tushar dil.
Ko'mildim men
ishqning jununlariga,
sahroday suvsadim,
daryoday toshdim.
Sendan so'raganim birgina najot –
Xazoniy holatlar ichra adashdim...
Mahshar tuni kabi qaro ko'zlarining
umrim uzra o'tgan
yo'lni o'g'irlar.
Tikilib-tikilib qaraysan sokin –
Sirot
ko'prigidan yiqilur sirlar.
O, jonim o'rgandi o'rtanishlarga,
oddiy tuyuladi bul zamon tanglik.
Sevdigim,
gar yonmoq muhabbat bo'lsa,
menga jahannam ham qiladi kamlik.

* * *

Sen va men.
O'rtada yagona fonus.
Nur aro tentiydi
nigun nigohlar.
Bo'g'zimizda titrab turar million so'z,
titrar
milliardlab qop-qora ohlar.
Xona nim qorong'u.
Fonus o'chmoqda,
zulmatga qorishar ikkita vujud.
Go'yo yaqinlashsang,
ketgum yiroqqa,
jimligimiz so'ylar:
jimlikdan ne sud?
Yiltirab ko'rinar ko'zingdagi yosh,
so'zlashaylik desak –
qalblar horg'indir.
Jur'at qilib oxir so'zladim asta,
men seni...
men seni juda sog'indim...

* * *

Atirgulning atirgulligi yolg'on
daryolarning daryoligi soxta
borliqning borligi ham cho'pchak
faqat
sening senliging rostdir
faqat
mening menligim haqiqat
shamollar-ku to'xtaydilar lek
biz to'kilib ketaveramiz
tushlarimizning tosh qotgan
qismlaridan
uy quramiz o'zimizga
sening senliging haqidagi
haqiqatlar bilan qorin to'ydiramiz
oppoq ko'lanka
va
oydin shivirga yonboshlab
uyquga ketamiz
tush ko'ramiz
tushimizga kirar rost dunyo

* * *

Bilaman,
sen so'zdan to'rالgan xilqat,
men esa...
bo'rondan to'kilgan sukut.
Sen so'zlar mulkida yashaysan faqat.
Voh,
Axir, men jimman!
Ruhimda sujud
gullamoqlik uchun urunayotir
va yonayotgan qarocho'g'imda
bir hayot halloslab yugurayotir.
Bir hayot yugurar...
yugurar tinmay –
manzili noayon,
manzili mavhum.
Tomirimda oqar arg'uvoniyl may –
men uni ichibon sassiz hayqirgum...
Billur kengliklarga sachraydi sukut,
sachraydi nigohlar –
sochmish qaysi ko'z?
Anglayman –
sen so'zdan yaralgan vujud,
Men-chi...
ovozlarga sig'olmagan so'z...

* * *

Men sizni kutmadim –
bedor kunlarning
bedil devorlari quladi bir-bir.
Yuragimning
qonvash ufqি ortida
mensiz lahzalarni sanadi kimdir.

Men sizni kutmadim –
quyosh boshimdan
sochdi zulumotning mis tangalarin.
Ichkarim – tunrang tong...
kezar toshimda
sizsiz kunlarimning ko'lankalari.

Men sizni kutmadim –
o'tdim shunchaki,
ashkdan emasdир hech ko'zimdagи nam.
Faqat...
erib borar ishqisiz yuragim
va erib boradi...
ko'zlarim ichra
siz yo'q olamlarning tasvirlari ham.

Men sizni kutmadim...

* * *

Intiqom yaqindir,
farxund fasllar
oylarni oylarga ulayveradi.
Garchi kuz...
garchi kuz...
ammo ichimda
maysaruh isyonlar gullayveradi.

Tashnaman,
suv ta'mi garchi begona –
loyimga namlikmas, so'ztomchi qo'shgan.
So'ylarman –
ruhimning chanqog'i qonar
va yo'llar boshlanar o'zlarin to'shab.

Va yo'llar boshlanar –
garchi toshdirman,
garchi sahrodirman – ro'yolarim nam...
dunyoga qul bo'lgum bir joyda qotib,
garchi dunyo menga arzimasa ham...

* * *

Behbudi yoturlar – ochiq ikki ko'z...

Nodira Afoqova

Bir sahro poyingda oh urar beshon,
ko'ksingdagi daryo qilar og'irlilik.
sen ming urinmagin,
baribir, ishon –
qo'lingdan kelmagay jonbaxsh yomg'irlilik.
Hayqirmoq istaysan –
ruhda jon berar
bu beburd savdolar parishonligi.
Shivirlab qo'yasan: shonli davr kelar
va ma'lum bo'lajak manim tongligim.
Vujuding yorilmoq yo'llarin izlar
tiriklik
atalmish
fano chohida.
Seni ezib borar cho'kilgan tizlar –
yitarsan yovuzlik intibohidan.
Qo'yib yuborarlar shuur o'lgan dam
bo'yningga quldorning tamg'asin taqib.
O'zingni asrab qol
o'lib bo'lsa ham,
hech yo'q Behbudiyning ko'zlari haqqi.

* * *

Bir anduh istarman Arsh taraflardan,
sarxushman,
sarbasar kezinar umid.

Xabar yo'q Ishq yurti – hur salaflardan,
bo'g'zimda sirg'ałar yig'inining qumi.

Hechdirman,
hechdirman,
hechdirman beshak,
lek borman bul dayrning har yonlarida.
yuvarman may yuqi piyolalarni
olis xotirotning daryolarida.

Ketgayman
kufroniy manzildan butkul.

Rafiq,
to'smagil bu rohlarimni sen.
Do'zax isi kelgan ovozim bilan
sevgi izhor qilay malaklarga men.

Ketgayman,
kuzdan kuz tomondir yo'lim,
ruhimni yoritar Ishq xayoli – sha'm.

Ketgayman,
kushoyish bermadi bog'lar –
meni chorlayotir Haq ismli G'am.

* * *

Yomg'irlar yog'adi...
ochilar Yurakning derazalari,
betil bog'lar ichra jimlik jaranglar.
Ko'rк sochar muhabbat manzaralari,
tomchi tovushida
tovlanur ranglar.
Ranglar...
Qorayadi samo siynasi,
bulutlar oqadi og'irdan-og'ir.
O'qib samovotdan Sevgi surasin,
ruhimning ichiga ko'chadi yomg'ir...
O'h,
ruhim yomg'iri:
chaqmoq, guldurak,
akslanar mangulik manzaralari.
(Bunga dunyo chiday olmasa kerak)
asta yopgum Yurak derazalarin...
Yomg'irlar yog'adi bedor bog'larga,
yomg'irlar yog'adi ruhga isyonkor.
Sokin shivirlayman
olti yoqlarga:
Kel,
senga atalgan yomg'irlarim bor...

BAXTINISO XOTIRASIGA

Yulduzingga labim bosdim, ey puranduh –
dudoqlarim
damlaridan
davvor
yondi,
Odam yondi,
sen tomonda Havvo yondi,
vujud ichra vajohat-la savol yondi:
tirikmi ruh?..

Men jim edim,
junun ichra bezabonman,
na men tomon
na sen va yo
U tomonman,
lahzalaring larzon urdi xonumonda,
oxir keldi...
Gunoh qildim, tanholig'ning ildizidan
kechdi rohim,
mensizlikka singib ketdi sahargohim,
ko'zlarimni to'ldirganda Ishq tuprog'i
senga ketdim
va dunyolar bo'ldi yakdil,
shamollarning titrog'ida gulladi nur.
Sukunatning ridosini kiydi taqdir,
men hayqirdim...
bo'g'zim ichra iqror yonur:
o'lim haqdir...

* * *

Sovrilib ketaman o'tkinchi yelga
va seni o'ylayman...
sen esa yo'qdirsan dunyoda hali
yo bor bo'lsang ham sezmagandirman.
Balki, mening o'zim yo'qdirman...
aslida, bu muhim ham emas!
Zamharir sovuqdan rohatlangancha,
simirgancha ko'zing rangli qahvani
o'ylayveraman.
Sevgi ham emasdир, ehtimol, bu?
bilmadim,
sevib ko'rmanmagan oldin.
Qo'llaringni,
sovruqdan ko'karib ketgan qo'llaringni
ushlayman xayolan,
uyalib ketaman o'zimdan...
Ro'yolar dunyosin
derazasidan mo'ralayman basorat ila,
unda ko'rindan kim haqidadir
berilib xayol surayotgan qiz...

* * *

Senga yaqin qoldi –
mana, yetaman.

Hozirdan tuyyapman iforlaringni,
poyimga bir sahro tashladi kamand –
unga nisor etgum anhorlaringni...

His etyapman

*nigohlar*ing
shivirlarini,

senli xayol Hayotimga aylamish safar.

Yo'llar meni
yo'llar sening Senliging tomon...

Aslida-ku...

mendan o'tib borar masofa...

senga yaqin qoldi...

bir...

yo ming qadam,
eshitilayotir olganing nafas.

Manzilingga yetgum – Nomingga qasam,
o'zligimdan kechib
o'ta olsam bas...
senga yaqin qoldi...

* * *

Tugab borayapman...
qolmadim hisob...
sovurib yubordim o'zni tong payti.
Ana, bir parchamdan yaraldi oftob,
boshqa bir parchamda qushlar hamd aytdi...
Shamollar qaytmaydi,
buni bilaman
va yana bilaman hechligimni men.
O'zimni o'zimga dushman qilaman,
o'zimni haydab so'ng yalinaman – kel...
O, nimalar qoldi manim ichimda,
Axir, Vaqt turibdi ruhga ko'z tikib.
Mana,
menikidir muqaddas nafrat
va ishqqa aylangan vujud meniki.
Qolgani sarobdir,
qolgani shovqin,
qolgani o'tkinchi – bu dunyo kabi.
Meniki bo'lgani faqat dard shavqi
va osmon loyidan qorilgan qalbim.
Tugab borayapman...
qolmadim hisob...

ZULXUMOR ORIFJONOVAGA

Kuzak suvlariday
tiniq va xomush
bir xayol bog'larni oralab o'tar
va dudoqlarida gullabon xonish
nigohi-la olam ranglarin o'par.
U o'tib boradi,
ko'ylagi uzra
gullari bahorni kutib titraydi.
Ma'sum maysalarning inja nozi-la
she'r ayta boshlagay –
sira tinmaydi.
U she'r aytaverar, umr ohori
shovullab to'kilar hovuchlariga.
Poklanar dunyoning ichki dunyosi,
shamollar nur ekar tovushlariga.
So'zlari yengildir qush kiprigidan,
bir hayo,
bir hayot,
bir xayol kechar –
uyg'onur ruhimda shavqi shafoat,
Jonim yolg'onlarning ridosin yechar.
... bir qiz o'tib borar – holi parishon,
Yiqilib-qalqinib borar yelkalar.
Bir qiz o'tib borar –
qo'shiqlari-la
gunohkor zaminni tilka-tilkalab.

* * *

Kiftimga o'rnashgan zalvorli osmon,
bir kaftimda quyosh,
birida qamar.

Charchamaydi aslo bundan sabil jon,
na-da qonim tomar,
na-da ter tomar.

Zil-zambil yukini belimga tashlab,
jismimga
osildi
bepoyon
zamin.

Tunlar kunduzlarni kelibon boshlab,
tizzamga tirmashar – shudir bir kami.

Ko'taraveraman –
bumas muammo,
nolishni bilmaydi hech bir bo'lagim.
Bariga bardoshim yetadi, ammo...
ba'zida og'irlik qilar yuragim.

Bir lahzaga chiqdim ishqning izmidan,
quladim
qarolig'
xandaqlariga.
Cho'ng g'ayur
nigohlar tushdi izimdan,
suyandim o'limning daraxtlariga.
Bo'shliqda eridi egasiz umrim,
dilimda qaridi baxt rangli dardlar.
Do'zax olovining shu'lalarida
Haq nomiga bitdim bir zarif xatlar.
Kuylarimni yutdi kunlar girdobi,
bo'g'zimni bulg'adi
o'ksiz ufunat.
Man oshiq edim-ku...
so'zlar kuydirgan
lablarimda ildiz otdi sukunat.
Bir lahzaga chiqdim ishqning izmidan,
qonimda muzladi isyon istar oh.
Najot, deb uzangan qo'llimga tushdi
o'lim daraxtidan uzilgan yaproq.

* * *

Ruhim,

tufrog' bilan egizliging rost,
rostdir osmon bilan birodarliging.

Shamol,

suv va

olov sengadir hamroz,
chindir bo'shliqlarda sarosarliging.

Va sening manziling – ufqning ostida,
Nurlahzada o'tgan
tirik asrsan.

Ba'zan o'ylab qolgum:

Ehtimol, dunyo

aslida yo'q!

Dunyo sen emasmisan?

Osiylik qildimmi,

O'zi etar afv,

shundog'am gunohlar gullar ko'nglimda.

Ruhim,

sen – ishqqa ergashgan salaf,
ta'sir etolmaydi senga o'limlar.

Ketyapman og'riqlar dashtida daydib,
qaynoq qayg'ularning bo'lib oshnasi.

Rostini aytaymi,

bari safsata –

Xudodan boshqasi,
sendan boshqasi...

"YOHU" DOSTONIDAN

Itqitib tashladim niqoblarimni,
bir tog'dek uyuldi –
cho'qqisi mulzam.

Sahrolar quritdi saroqlarimni,
ayt endi hechligim,
maylimi, kulsam?

Ko'zyosh kurtaklari kengayib borar,
o, darvesh dashtlarga
sochilur umrim
va kimdir loyimni beparvo qorar
sharob-u tuproq-la
Arshda tik turib.

Ey, yaralmoq sirin gung voqiflari,
tiriling,
fosh bo'lay iblis komida.

Do'zaxdan quvilgan ruh sohiblari,
jannatga o't qo'ying
ishqning nomidan.

Fosh bo'lay,
gunohlar porlab, nuridan
qamashib ko'r bo'lsin malaklar ko'zi.

Fosh bo'lay,
topilsin niqob qa'ridan
hali hech bir ko'zgu ko'rmagan yuzim.

MUNDARIJA

Aziz Said. Umidimiz katta.....	3
“Yomg’ir shevasida she’r o’qir osmon...”	7
“Aya...”.....	8
“Birrovgal kelgandim seni ko’rmoq-chun...”	9
“Turnalar faryodi uyg’otar seni...”	10
“Bo’yab o’tsam kunlarimni qor rangiga...”	11
“Moviylik qo’ynida qaro nuqta – shab...”	12
“Men-ku...”.....	13
“Bir zulmat ato et...”	14
“Tunlardan bir tun...”	16
“Isyon isi kelar sukunatimdan...”	17
“Ishqning nozik barmoqlari-la...”	18
“To’kilib...”.....	19
“Gunohlar to’kilar barmoqlarimdan...”	20
“Sarxushlik...”.....	21
“Sen va men...”	22
“Atirgulning atirgulligi yolg’on...”	23
“Bilaman...”.....	24
“Men sizni kutmadim...”	25
“Intiqom yaqindir...”	26
“Bir sahro poyingda oh urar beshon...”	27
“Bir anduh istarman Arsh taraflardan...”	28
“Yomg’irlar yog’adi...”	29
Baxtiniso xotirasiga.....	30
“Sovrilib ketaman o’tkinchi yelga...”	31
“Senga yaqin qoldi...”	32
“Tugab borayapman...”	33
Zulkumor Orifjonovaga.....	34
“Kiftimga o’rnashgan zalvorli osmon...”	35
“Bir lahzaga chiqdim ishqning izmidan...”	36
“Ruhim...”	37
“Yohu” dostonidan.....	38

UO'K: 821.512.133-1(081)

KBK: 83.3(50'zb)

M 84

M 84 Muzaffar, Mirzohid.

Fosh [matn]: *she'rlar*/ M.Muzaffar.

- Toshkent: "Adabiyot" nashriyoti, 2020. - 40 b.

Adabiy-badiiy nashr

FOSH

She'rlar

Muharrir: *D. Mingboyeva*

Badiiy muharrir: *F. Ermatov*

Sahifalovchi: *N. Soatov*

Musahhih: *Sh. Hakimova*

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

"ADABIYOT-NASHRIYOTI" MCHJ

Nashriyot litsenziyasi: AI № AA 0043. 27.01.2020.

100129, Toshkent shahri, Markaz-15. 1/90.

❶ (98) 128-30-04. e-mail: mashkhur-press@mail.ru

Bosishga 20.11.2020-yilda ruxsat etildi:

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 70x90 $\frac{1}{32}$.

Ofset bosma. Hisob-nashriyot t. 1,25.

Adadi: 10000 nusxa. Buyurtma №303.

"AZMIR NASHR PRINT" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
100200, Toshkent shahri, Adham Rahmat ko'chasi, 10-uy.



MIRZOHID MUZAFFAR

FOSH

Mirzohid Muzaffar
(Mirzohid Abdullayev) 1999-yil
12-sentyabrda Toshkent viloyatining
Chinoz tumanida tug'ilgan. Ayni
paytda Turkiyadagi Kastamonu
universiteti Nafis san'at fakultetining
Kino bo'limida tahsil olish bilan birga,
"Kitob dunyosi" gazetasida tarjimon
sifatida faoliyat yuritadi. Ingliz, rus,
turk va fransuz tillaridan o'zbek
tiliga, o'zbek tilidan ingliz va turk
tillariga tarjimalari milliy va xalqaro
nashrlarda e'lon qilingan. Amerikalik
shoir Gekyo Marinayning "Qirq olti
sahifa" nomli she'riy to'plamini va
"Muzayyan: Zamonaviy turk
hikoyalari" antologiyasini o'zbek
tiliga tarjima qilgan.

"ADABIYOT"
NASHRIYOTI

ISBN 978-9943-6472-5-1

